

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI ISHLAR VAZIRLIGI
JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI**

AKADEMIK KENGASHNING 4-MAJLISI BAYONNOMASI

2024-yil 26-dekabr

Toshkent - 2024

JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI
AKADEMIK KENGASHI MAJLISINING
4-BAYONNOMASI

Toshkent shahri

2024- yil 26-dekabr

Qatnashdilar:

A'zolar: S.Safoyev (rais), A.Umarov (rais o'rinbosari), M.Abduraxmanova (Akademik kengash kotibi), O.Yusupdjanov, G.Ismailova, Sh.Abdullayev, A.Xaydarov, A.Turdimatov, I.Xamedov, M.Xamdamov, Sh.Arapov, L.Xodjayev, B.Salaxitdinov, O.Mannopova, E.Sultanova, G.Raimova, U.Sharipova, L.Tashpulatova, I.Yakubov, Sh.Masadikov, R.Yusufaliyeva, Y.Borisova, V.Mamatkasimova, X.Gafurova, N.Raimova, A.Rasulov, M.Baqoyev, N.Muminova, M.Abdullayeva, A.Abdullayev, I.Mavlanov, N.Sirajiddinov

Doimiy taklif qilinganlar: U.Dustov, A.Nasirov, M.Siddikova, I.Mo'minov, Sh.Shakirova, M.Sheraliyev, B.Xasanov, A.Xakimov, F.Tashev.

Qatnashmadilar: A'zolar: U.Xasanov, U.Yakubxodjayev

Doimiy taklif qilinganlar: D.Normetova, Sh.Urinov.

KUN TARTIBI:

Masala T/r	Mazmuni	Taqdimotchi va mas'ullar	Hujjat kodi
4-1	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-iyuldagi "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti faoliyatini tizimli isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-330-son qarori ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha yillik hisoboti	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor G.Ismailova	A
4-2	JIDuning "Times Higher Education" tashkilotining "Ta'sir reytingi - 2025" platformasi uchun 2023-yil yakunlari bo'yicha tayyorlangan ma'lumotlar tahlili va istiqboldagi vazifalar	Transformatsiya ofisi rahbari A. Nasirov	B

4-3	Istiqbolli xalqaro tadqiqotlar institutining 2024-yil yakunlari bo'yicha hisoboti	IXTI direktori Sh. Abdullayev	C
4-4	Doktorantlar va tayanch doktorantlar faoliyati samaradorligini o'rganish hamda bitiruvchi doktorantlarning o'z vaqtida himoyaga chiqishlarini ta'minlash maqsadida o'tkazilgan monitoring natijalari	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor G.Ismailova	D
4-5	Siyosatshunoslik kafedrası professori v.b., dotsent A.P.Seitovni professorlik unvoniga tavsiya etish	Akademik kengash kotibi M.Abduraxmanova	E
4-6	<p>Turli masalalar</p> <p>Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining:</p> <ul style="list-style-type: none"> - "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining akademik erkinlik siyosati to'g'risida"gi Nizomini tasdiqlash; - "Zamonaviy qullikka qarshi bandlik siyosati" to'g'risidagi Nizomini tasdiqlash; - "Bandlik amaliyotida teng huquqlar autsorsingi" Nizomini tasdiqlash; - "Bandlik siyosati va maosh miqdorining tengligi" to'g'risidagi Nizomini tasdiqlash; - "Diskriminatsiyaga qarshi bandlik siyosati" Nizomini tasdiqlash; 	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor G.Ismailova	F

Akademik kengash kotibi M.Abduraxmanova – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Oliy o'quv yurtining Ilmiy kengashi to'g'risida"gi Nizomiga muvofiq Ilmiy kengash majlisini boshlashga yetarli kvorum bor ekanligini ma'lum qildi.

Bildirilgan mulohazalar:

Ilmiy kengash a'zolari majlisni boshlashni bir ovozdan ma'qulladilar.

1-MASALA. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-iyuldagi "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti faoliyatini tizimli isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-330-son qarori ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha yillik hisoboti

ESHITILDI: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor **G.Ismailova** Universitetni xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlarning sohaviy, mintaqaviy yohud tematik reytinglardagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, yuqori malakalari mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, ilmiy tadqiqot ishlari samaradorligini oshirish, talaba-yoshlar ta'limi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlari samaradorligini oshirish, universitet kutubxonasini kompleks rivojlantirish masalalari yuzasidan amalga oshirilgan ishlar, kamchiliklar va kelgusi vazifalar to'g'risida batafsil tahliliy ma'lumot berdi. **(Hujjat A)**

Bildirilgan mulohazalar:

Hisobot Akademik kengash a'zolari tomonidan ma'qullandi.

QAROR QILINDI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-iyuldagi "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti faoliyatini tizimli isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-330-son qarori ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha yillik hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-iyuldagi "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti faoliyatini tizimli isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-330-son qarori 2025-yil uchun ko'rsatkichlar ijrosini ta'minlash borasida barcha bo'limlar, dekanatlar, kafedralar va professor-o'qituvchilar ishi kuchaytirilsin, navbatdagi Akademik kengashda barcha yillik ish rejalar indikatorlarga moslab ishlab chiqilsin va tasdiqlansin.

3. Mazkur qaror ijrosi ustidan nazoratni o'z zimmamda qoldiraman.

2-MASALA. JIDUning "Times Higher Education" tashkilotining "Ta'sir reytingi - 2025" platformasi uchun 2023-yil yakunlari bo'yicha tayyorlangan ma'lumotlar tahlili va istiqboldagi vazifalar to'g'risida.

ESHITILDI: Transformatsiya ofisi rahbari **A. Nasirov** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-iyuldagi PQ-330-son Qaroriga muvofiq, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti "Times Higher Education" ("THE") tashkiloti tomonidan 2024-yil sentabr-noyabr oylarida tashkil etilgan "Ta'sir reyting - 2025"da ishtirokini ta'minlash vazifasi qo'yilgan edi. Universitet tomonidan "Barqaror rivojlanish yo'lida hamkorlik" (17-maqсад), "Sifatli ta'lim" (4-maqсад), "Munosib ish o'rinlari va iqtisodiy o'sish" (8-maqсад), "Tinchlik, adolat va samarali boshqaruv" (16-maqсад) yo'nalishlariga qo'shgan hissasi yuzasidan barcha ma'lumotlarni taqdim qildi. Shuningdek, Universitet rasmiy veb-saytida Barqaror rivojlanish maqsadlariga doir maxsus sahifa yaratildi va muhim hujjatlar joylashtirildi. Reyting e'lon qilinishi 2025-yil iyun oyiga rejalashtirilgan. Universitetning "THE" tashkilotining "Ta'sir reyting"ida o'z ko'rsatkichlarini yaxshilab borish maqsadida **(Hujjat B)**

QAROR QILINDI:

1. Universitet ilmiy xodimlarining "Scopus" xalqaro indekslangan jurnallarda maqola chop etish faolligini oshirish va ularni milliy hamda xalqaro tadqiqot loyihalariga jalb qilish choralari ishlab chiqilsin.
2. JIDU faoliyatini keng jamoatchilik va xorijiy hamkorlarga to'liq va mazmunli yetkazish maqsadida:
 - IT markazi hamda PR, marketing va bitiruvchilar bilan ishlash sektori uchun mehnat haqi alohida kelishuv asosida yuqori malakali jurnalist va veb-dizaynerni ishga qabul qilish;
 - talabalar Kengashi va talabalar klublari tadbirlarini yoritish uchun universitet veb-saytida bo'lim ochish yoki alohida veb-sayt yaratish taklifi ishlab chiqilsin.
3. Universitet kafedralari mahalliy nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlari bilan memorandumlar asosida Barqaror rivojlanish mavzularida tadbirlarni reja asosida o'tkazishi ta'minlansin.
4. Ma'muriy va akademik bo'limlar tomonidan Universitet normativ-huquqiy ("Odob-axloq kodeksi", "Ichki tartib-qoidalar", "Jamoat shartnomasi", "Xotin-qizlar maslahat kengashi" va b.) hujjatlariga Barqaror rivojlanish maqsadlari talablarini integratsiya qilish va nodavlat tashkilotlar hamda fuqarolik jamiyati institutlari bilan umumiy loyihalarni amalga oshirish ishlari yo'lga qo'yilsin.

5. Mazkur qaror ijrosi ustidan nazorat Akademik ishlar bo'yicha birinchi prorektor A.Umarov zimmasiga yuklatilsin.

3-MASALA. *Istiqbolli xalqaro tadqiqotlar institutining 2024-yil yakunlari bo'yicha hisoboti*

ESHITILDI: IXTI direktori **Sh. Abdullayev** institut faoliyati yuzasidan tahliliy ma'lumot taqdim etdi. Hisobot 3 tilda tayyorlangan va tashkilotning barcha yo'nalishdagi faoliyati aniq raqamlarda qayd etildi. **(Hujjat C)**

Bildirilgan mulohazalar:

Hisobot Akademik kengash a'zolari tomonidan qabul qilindi.

QAROR QILINDI:

Istiqbolli xalqaro tadqiqotlar institutining 2024-yil yakunlari bo'yicha IXTI direktori Sh. Abdullayev ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4-MASALA. *Doktorantlar va tayanch doktorantlar faoliyati samaradorligini o'rganish hamda bitiruvchi doktorantlarning o'z vaqtida himoyaga chiqishlarini ta'minlash maqsadida o'tkazilgan monitoring natijalari to'g'risida*

ESHITILDI: Doktorantlar va tayanch doktorantlar faoliyati samaradorligini o'rganish hamda bitiruvchi doktorantlarning o'z vaqtida himoyaga chiqishlarini ta'minlash maqsadida o'tkazilgan monitoring natijalari to'g'risida Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor **G.Ismailov**ning ma'lumoti tinglandi. **(Hujjat D)**

Bildirilgan mulohazalar:

Ma'lumot Akademik kengash a'zolari tomonidan qabul qilindi.

QAROR QILINDI:

1. Universitetda doktorantlar va tayanch doktorantlar faoliyati samaradorligini o'rganish hamda bitiruvchi doktorantlarning o'z vaqtida himoyaga chiqishlarini ta'minlash maqsadida o'tkazilgan monitoring natijalari to'g'risidagi hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi "Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 304-sonli qaroriga muvofiq 4A-4-D ilovadagi tadqiqotchilar tayanch doktorantura va doktoranturani bitirdi deb hisoblansin.
3. Universitetning 2024-yil 11-dekabrda 188-UM sonli buyrug'iga muvofiq o'tkazilgan monitoring natijalariga ko'ra 4B-4-D -ilovadagi jadvalda ko'rsatilgan tadqiqotchilar kursdan kursga o'tkazilsin.
4. Universitetning 188-UM sonli buyrug'iga muvofiq doktorantlar va tayanch doktorantlar faoliyati samaradorligini o'rganish hamda bitiruvchi doktorantlarning o'z vaqtida himoyaga chiqishlarini ta'minlash maqsadida o'tkazilgan monitoring natijalariga ko'ra 4C-4-D-ilovada ko'rsatilgan tadqiqotchilar doktorantlar safidan chiqarilsin.
5. 23.00.04-Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotining siyosiy muammolari ixtisosligi bo'yicha doktorant (DSc) **Rahsidov Rustam Rasulovichning** ixtisoslik shifri 23.00.02 - Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar ixtisoslik shifriga o'zgartirilsin.
6. 08.00.13 – Menejment ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorant (PhD) **Boboyorov Mirkomil Murodullaevichning** ixtisoslik shifri 08.00.09 - Jahon iqtisodiyoti ixtisosligiga o'tkazilsin.
7. Mazkur qaror ijrosi ustidan nazorat ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori G.Ismailova zimmasiga yuklatilsin.

5-MASALA. *Universitet o'qituvchilarini ilmiy unvonlarga tavsiya qilish to'g'risida.*

ESHITILDI: Siyosatshunoslik kafedrasini professori v.b., dotsent A.P.Seitovni professorlik unvoniga tavsiya etish to'g'risida (**Hujjat E**)

QAROR QILINDI:

1.1. Ilmiy kotib M.Abduraxmanovning professor unvoniga talabgor **Seitov Azamat Pulatovichning** pedagogik va ilmiy faoliyati haqidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

1.2. Professor unvoniga talabgor **Seitov Azamat Pulatovichning** ilmiy faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2016-yil 28-aprelda 224/8-son Qarori bilan tasdiqlangan Ilmiy unvonlar berish tartibi to'g'risidagi Nizom talablariga to'liq javob beradi deb hisoblansin.

1.3. **Seitov Azamat Pulatovichni** professor ilmiy unvoniga tavsiya etish to'g'risidagi fakultet yig'ilishi tavsiyasi ma'qullansin.

1.4. **Seitov Azamat Pulatovichni** professor ilmiy unvoniga taqdim etish yuzasidan yashirin berilgan ovozlarni sanash uchun saylangan Sanoq komissiyasi bayonnomasi ma'qullansin.

1.5. Professor ilmiy unvoniga da'vogar **Seitov Azamat Pulatovich** nomzodi tasdiqlansin va professorlik unvoni berilsin.

1.6. Universitet Ilmiy kotibi M.Abduraxmanovaga:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasining ilmiy unvonlar berish to'g'risidagi Nizom talablariga muvofiq **Seitov Azamat Pulatovichning** hujjatlari 10 kun muddat ichida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasi tizimiga yuklanishi vazifasi topshirilsin.

Muddat: 2025-yil 10-yanvar.

TURLI MASALALAR

1. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining:

- "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining akademik erkinlik siyosati to'g'risida"gi Nizomini tasdiqlash;
- "Zamonaviy qullikka qarshi bandlik siyosati" to'g'risidagi Nizomini tasdiqlash;
- "Bandlik amaliyotida teng huquqlar autsorsingi" Nizomini tasdiqlash;
- "Bandlik siyosati va maosh miqdorining tengligi" to'g'risidagi Nizomini tasdiqlash;
- "Diskriminatsiyaga qarshi bandlik siyosati" Nizomini tasdiqlash to'g'risida (Hujjat E).

ESHITILDI: "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining akademik erkinlik siyosati to'g'risida"gi Nizomini tasdiqlash to'g'risida G.Ismailova ma'lumot berdi.

QAROR QILINDI:

1. "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining akademik erkinlik siyosati to'g'risida"gi Nizomi 4A-5-E -ilovaga asosan tasdiqlansin.

2. "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining akademik erkinlik siyosati to'g'risida"gi Nizomi ijrosini ta'minlash G. Ismailovaga yuklatilsin.

ESHITILDI: "Zamonaviy qullikka qarshi bandlik siyosati" to'g'risidagi Nizomini tasdiqlash to'g'risida G.Ismailova ma'lumot berdi.

QAROR QILINDI:

1. "Zamonaviy qullikka qarshi bandlik siyosati" to'g'risidagi Nizomi 4B-5-E -ilovaga asosan tasdiqlansin.

2. "Zamonaviy qullikka qarshi bandlik siyosati" to'g'risidagi Nizomi ijrosini ta'minlash A.Umarovga yuklatilsin.

ESHITILDI: "Bandlik amaliyotida teng huquqlar autsorsingi" Nizomini tasdiqlash to'g'risida G.Ismailova ma'lumot berdi.

QAROR QILINDI:

1. "Bandlik amaliyotida teng huquqlar autsorsingi" to'g'risidagi Nizomi 4C-5-E -ilovaga asosan tasdiqlansin.

2. "Bandlik amaliyotida teng huquqlar autsorsingi" Nizomi ijrosini ta'minlash A.Umarovga yuklatilsin.

ESHITILDI: "Bandlik siyosati va maosh miqdorining tengligi" to'g'risidagi Nizomini tasdiqlash to'g'risida G.Ismailova ma'lumot berdi.

QAROR QILINDI:

1. "Bandlik siyosati va maosh miqdorining tengligi" to'g'risidagi Nizomi 4D-5-E -ilovaga asosan tasdiqlansin.

2. "Bandlik siyosati va maosh miqdorining tengligi" Nizomi ijrosini ta'minlash A.Umarovga yuklatilsin.


ESHITILDI: "Diskriminatsiyaga qarshi bandlik siyosati" to'g'risidagi Nizomini tasdiqlash to'g'risida G.Ismailova ma'lumot berdi.

QAROR QILINDI:

1. "Diskriminatsiyaga qarshi bandlik siyosati" to'g'risidagi Nizomi 4E-5-E -ilovaga asosan tasdiqlansin.


2. "Diskriminatsiyaga qarshi bandlik siyosati" Nizomi ijrosini ta'minlash A.Umarovga yuklatilsin.

Akademik kengash majlisiga raisi



S.S. Safoyev

Akademik kengash kotibi



M.D. Abduraxmanova